



hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi

maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
-maktabgacha ta'lim tashkiloti  
o'rta guruh tarbiyachisi

ning takomillashtirilgan "Ilk qadam"

o'quv dasturi asosida  
"Gullab yashnayotgan bahor"  
mavzusida tashkillangan

# FAOLIYAT ISHLANMASI

(Aprel oyining 1-haftasi)

# veb-saytimiz: Zokirjon.com

*Zokirjon.com veb-sayti orqali o‘zingiz uchun kerakli ma’lumotlarni yuklab oling.*

*+99890-530-88-18 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan jek456 izlab telegramga yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi.*

*Hujjat word variant doc formatda beriladi.*

*O‘rta guruhlarga aprel oyi 1-hafta faoliyat ishlanmani to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.*




Telegram kanalimiz:

**@maktabgacha\_tt**

**Narxi: 5000**

To‘lov uchun: **HUMO 9860230104973329**

**Plastik egasi Nabihev Zokirjon**



## DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA HIYONAT  
QILMANG.**

**Guruuh: O'rta guruuhlar uchun**

**Oy mavzusi: Yer sayyorasi umumiy uyimiz**

**Hafta mavzusi: Gullab yashnayotgan bahor**

Ta'limiylar faoliyat maqsadlari:

**Ta'limiylar:** tarbiyalanuvchilarning bahor fasli haqidagi bilimlarini mustahkamlash, ularga bahorning o'ziga xosligi haqida tushuncha berish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarning so'z boyligini oshirish, ular da tasavvur qilish qobiliyatini kuchaytirish;

**Tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchilarda o'zaro hamdardlik tuygularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, bahorga oid suratlar.

Ta'limiylar faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** - Assalomu alaykum, mening quvnoq bolajonlarim. Bugungi ta'limiylar faoliyatimizda bahor fasli haqida suhbatlashamiz. Fasllar kelinchagi deb e'zozlanadigan ushbu fasl uyg'onish, yangilanish davri hisoblanadi.

Bahor kelishi bilan dalalarda, bog'larda ishlar qizg'in boshlanib ketadi. Bobo dehqonlarimiz yerga sara urug' qadash taraddudiga tushishsa, bog'bonlarimiz daraxtlarga shakl berib, yangi mo'l-ko'l hosil yaratishga tayyorgarlikni boshlab yuborishadi. Butun tabiat uyg'onadigan bu fasl hammamizga muborak bo'lsin.

**Bolalar:** - Rahmat.

**Tarbiyachi:** - Bolalar, bahorning tarovati, uning go'zalligi haqida juda ko'p shoirlarimiz she'rlar yozishgan, bahordan zavqlanib qo'shiqlar aytishgan. Hozir sizlarga shoir Iqbol Mirzoning "Ko'klamoyim" she'rini o'qib beraman.



Ko'klamoyim

Iqbol Mirzo

Ko'klamoyim sep yoydi.  
Tabiatga zeb yoydi.  
O'ynab-kuling deb yoydi  
Baxmal dasturxon bugun.  
Yaxshilar mehmon bugun.  
Qiqir-qiqir jilg'alar.  
Qir-adirdan sirg'alar,  
Hulvo taqib sirg'alar.  
Bulbul g'azalxon bugun.  
Ko'ngil farovon bugun.  
Bir ajoyib quvonch bu.  
Bir g'aroyib ishonch bu,  
Yaratish zavqi ezgu  
Hammamiz dehqon bugun.  
Barchamiz bog'bon bugun.  
Kecha kunduz teng bo'ldi.  
Olam bag'ri keng bo'ldi.  
Bir yoqa-yu yeng bo'ldi  
Do'st-u qadron bugun,  
O'ynang bearmon bugun.  
Qaldirg'ochim, xush  
ko'rdik,  
Ko'klamoyim, bo'yingdan.  
Aylanoyin to'yingdan.  
Oq gul sochib qo'yningdan.  
Olam guliston bugun.  
Olam guliston bugun!

**Tarbiyachi:** - Bolalar, endi monitordagi tasvirlarga qarab ketma-ketlikda gap tuzing. Bu gaplarimiz kichik bir hikoyaga o'xshashi kerak.

(Monitorda bahor tasviri ko'rsatiladi.)

**1-bola:** - O'lkamizga bahor fasli kirib keldi.

**2-bola:** - Bu faslda tog'larda qorlar eriydi.

**3-bola:** - Bahor elchisi boychechak va binafshalar o'sib chiqadi.

**4-bola:** - Lolaqizg'aldoqlar ochiladi.

**5-bola:** - Bu faslda onajonlarimizning bayrami va Navro'z bayrami nishonlanadi.


**6-bola:** - Bahorda dehqonlar urug'lar ekadilar.

**7-bola:** - Bog'bonlar esa bu faslda daraxt va gullarni ekadilar.

**8-bola:** - Bu uyg'onish fasli bo'lgani uchun mahallalarda ham hasharlar o'tka-



Lolazor



Boychechak

Lolaqizg'aldoq

**BAHOR GULLARI**

ziladi, hovli-ko‘chalarga mevali daraxtlar, gullar ekiladi.

**9-bola:** - Bahorda kun isigani uchun ko‘chada o‘yinlar o‘ynaymiz. Varraklar uchiramiz.

**10-bola:** - Buvilarimiz esa sumalak, halim kabi taomlarni tayyorlashadi.

**11-bola:** - Bahor hammamizga yoqadigan fasllardan biri.

**Tarbiyachi:** - Barakalla, bolajonlar, endi bu topishmoqlarga javob bering- lar-chi.

Siylab-siylab daraxtlarga

Guldan marjon taqib kelar.

Bu qaysi fasl? (**Bahor**)

Sharqdan bosh ko‘tarar u,

Har tong sog‘inar bizni.

Ko‘rmasak turolmaymiz,

Olov yuzli qirmizli. (**Quyosh**)

Qozonda emas, qaynaydi,

Qishin yozin tinmaydi. (**Buloq**)



**Tarbiyachi:** - Barakalla, bolajonlar, bugungi faol ishtirokingiz uchun sizlarga katta rahmat.

**Aprel. Birinchi hafta «Gullab yashnayotgan bahor»**

**Qurish, yasash va matematika markazi**

**Mozaikadan yasash: «Bahor rasmi»**


**Maqsad:** bolalar tayyor rasm yoki tayyor namunani tomosha qiladilar va mozaikadan qurilma yasaydilar. Tasavvurlari, idroki va mayda qo‘l motorikalarini rivojlantiradilar.

**Kerakli jihoz va materiallar:** mozaika, mavzu

bo‘yicha rasmlar.

**Faoliyatning borishi:**

1. «Bahor» ras mini tomosha qilish.
2. «Bu qanday bo‘ladi» ta’limiy o‘yini.
3. «Rasmni yig‘ish» ta’limiy o‘yini.
4. Mozaikadan loyihalash.
5. Bolalarning ishlarini muhokama qilish va rag‘batlantirish.



**Qo‘shimcha:** «Gullayotgan bahor» illyustratsiyasi, «Yil faellari», «Yaxshi va yomon» ta’limiy o‘yinlarida ishtirok etish.

**E’tiborga molik jihat:** konstruktiv yechim- larni topa bilish, boshlangan ishni oxirigacha yetkazish, bolalar ijodini rivojlantirish.

**Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazi**

**«O‘jar echkilar» o‘zbek xalq ertaginiing sahna ko‘rinishi**

**Maqsad:** bolalar ertak mazmunini biladilar, qahramonlarning ijobiy va salbiy jihatlaripi belgilay oladilar, aktyorlik mahoratini namoy ish qiladilar.

**Kerakli jihoz va materiallar:** qahramonlar niqoblari, ertakka tegishli ashyolar,



### Faoliyatning borishi:

1. Ertak mazmuni bo'yicha suhbat.
2. Ertakka oid rasmlar yordamida teatr sahnalashtirish rejasini tuzish.
3. Rollarni taqsimlab, tegishli ashyolarni tanlash.
4. Ertakni sahnalashtirish.
5. Muhokama va rag'batlantirish.

**Qo'shimcha:** ertakni o'qish, ertakka doyr illyustratsiyalarni tomosha qilish.

**E'tiborgamolik jihat:** bir-birlarini tinglash, jamoada ahil bo'lib o'ynash ko'nikmalari, ijodiy qobiliyatlarni namoyish qilish.

### Til va nutq markazi

#### *H.Raimovning «Yalpiz» hikoyasini qayta hikoya qilish*

**Maqsad:** bolalar yalpiz, ko'kat so'zlarining ma'nolarini tushunadilar, diqqat bilan tinglash, qayta hikoya qilib berishga o'rganadilar, faol nutqni shakllantiradilar.

**Kerakli jihoz va materiallar:** hikoya mavzusiga mos rasmlar, AKT.

### Faoliyatning borishi:

- I. Yalpiz o'simligi bilan tanishish.
2. «Yalpiz» hikoyasini audio eshittirish.
3. Rasmlar asosida qayta hikoya qilish.
4. Muhokama va rag'batlantirish

**Qo'shimcha:** bolalarni hikoyalarni ifodali Aytib berishga o'rgatish. Bolalar bilan yalpizli ko'k somsa tayyorlash va



ular bilan mehmon qilish

**E'tiborga molik jihatni:** tabiatga nisbatan mehr hissini tarbiyalash.

**Fan va tabiat markazi**


**Gullayotgan daraxtni kuzatish**

**Maqsad:** bolalar bahorgi tabiat go'zalligidan zavqlana oladilar, daraxt qismlari: tanasi, shoxlari, gullari, kurtaklarini ajrata bilishadi.

**Kerakli jihoz va materiallar:** gullayotgan daraxt chizilgan rasm, daraxt shoxi, belkurakcha, panshaxa, gulchelaklar.

**Faoliyatning borishi:**

1. Rasmlarni tomosha qilish.
2. Bolalar bog'chasi bo'ylab sayohatni rejalashtirish.
3. Gullayotgan daraxtlarni kuzatish.
4. «Ta'rifiga ko'ra daraxtni top» ta'limiy o'yini.
5. «O'xshash bargni top» ta'limiy o'yini.



**Qo'shimcha:** bahor haqidagi she'rni mazmunli o'qish, bahorda gullaydigan daraxt nomlarini bilish va ularni kuzatish imkoniyatini yaratish.

**E'tiborga molik jihatni:** bolalarda kuzatuvchanlik qobiliyati, tasavvur, idroklarini rivojlantirish.

**San'at markazi «Moychyechak»**

**Maqsad:** bolalar hajmli kompozitsiyalarni yarata oladilar, yasash bo'yicha texnik ko'nikmalarni egallaydilar.

**Kerakli jihoz va materiallar:** plastilin, paxta tayoqchalari, gofra qilingan qog'oz, yasash uchun kleyonka.

**Faoliyatning borishi:**

1. Gullar illyustratsiyasini tomosha qilish.
2. Topishmoqlar aytish. She'rlarni o'qish.
3. Moychyechak gulini yasash ketma-ketligi tasvirlangan sxema bilan tanishish.
4. Amaliy ish faoliyati.
5. Bolalar ijod namunalari ko'rgazmasi.

**Qo'shimcha:** gullar illyustratsiyasini tomosha qilish, ta'limiy o'yinlar.

**E'tiborga molik jihatni:** plastilin bilan ishlay olish, tasavvurni boyitish, ijodiy yondashish.



